



“TASDIQLAYMAN”

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

Boshqaruv raisi

Sh.P.Alimov

2025 yil “28” mart

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati Axloq komissiyasining
1-sonli BAYONI**

Toshkent shahri

2025-yil “28” mart

Komissiya raisi:

Moliyaviy ishlar bo‘yicha direktor

R. Radjapov

Komissiya raisi o‘rinbosari:

Kapital ta‘mirlash va ijtimoiy masalalar
bo‘yicha departament direktori

Y. Zakirov

Komissiya a‘zolari:

Bosh muhandis o‘rinbosari

B. Eshmurzayev

Xaridlar bo‘yicha direktor

Z. Ismailov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

G‘. Chuponov

Qimmatbaho metallar geologiyasi boshqarma boshlig‘i

Y. Jurayev

Ishlar boshqarmasi boshlig‘i

A. Madjitov

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo‘limi boshlig‘i

D. Saidaxborov

Boshlang‘ich Kasaba uyushmasi raisi

M. Iminov

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich
tashkilot raisi

G. Jabborova

Komissiya kotibi:

Inson resurslarini boshqarish va
rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

F. Umarov

Yig'ilish kun tartibi:

1. **Manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi bo'yicha deklaratsiya arizalari to'ldirish bo'yicha tahlil.**

2. **"O'zbek geologiya qidiruv" AJ tarkibiy bo'linmalari Axloq komissiyalarining qarorlari.**

3. **Boshqaruv apparati xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi bo'yicha deklaratsiya arizalari tahlilini ko'rib chiqish.**

4. **Tarkibiy bo'linmalari Axloq komissiyalarining qarorlari bo'yicha qo'shimchalar kiritish.**

EShITILDI:

1. Kun tartibi masalasi bo'yicha Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi bosh mutaxassisi Q. Majidov Axloq komissiyasiga jamiyat boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linmalarning xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi bo'yicha deklaratsiya arizalarining tahlili, hamda tahlillar natijasida joylardagi Axloq komissiyalarining qarorlari va ularda ko'rilgan masalalarni yetkazib, hujjatlarni taqdim etdi.

Bunda jami 28 mart holatiga 4015 nafar xodimdan **3973 nafari** (jami ishchi-xodimlarning 99 %) manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalar arizalarni to'ldirilgan, qolgan qismi bola parvarishi ta'tilida bo'lgan, mehnat ta'tilida bo'lgan va ijtimoiy ta'til hamda mehnatga layoqatsizlik davrida bo'lgan xodimlar hissasiga to'g'ri kelishini hamda qolgan 42 nafar xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi bo'yicha deklaratsiya arizalari tahlilini 2 chorak yakunida ko'rish rejalashtirilganligi ma'lum qildi.

2. Tarkibiy bo'linmalar Axloq komissiyalari yig'ilish qarorlariga ko'ra: *"Qizilqum" MGQE 964/975 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra bu dala ekspeditsiyalarida 109 ta yaqin qarindoshlar bir tashkilotda ishlashi ular to'g'ridan-to'g'ri bir-birining bo'ysunuvida bo'lmaganligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori 3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxatining 11-bandida, Dala geologiya (ekspeditsiyalari, uchastkalari va boshqa) tashkilotlari xodimlari tushishi sabab manfaatlar to'qnashuvi emas deya qaror qabul qilingan;*

"Markaziy laboratoriya 99/99 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra mazkur laboratoriyada 14 ta yaqin qarindoshlar bir tashkilotda bir-biriga bo'ysunmaydigan va geologiya tarmog'ining turli korxonalarida ishlashi ularning o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi keltirib chiqarmasligi bo'yicha qaror qabul qilingan;

"Samarqand" MGQE 928/942 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori

3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxati asosida manfaatlar to'qnashuv mavjud emasligi bo'yicha qaror qabul qilingan;

“Toshkent” MGQE 669/669 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra bu dala ekspeditsiyalarida 8 ta yaqin qarindoshlar ishlashi ulardagi bir-biriga bo'ysunuvni, topshiriq (naryad) berishlarni boshqa bo'lim rahbarlariga o'tkazish va bir bo'lim boshlig'ining boshqa lavozimga o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilingan;

“Xisor” MGQE 575/575 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra bu dala ekspeditsiyalarida 46 ta yaqin qarindoshlar bir tashkilotda ishlashi ular to'g'ridan-to'g'ri bir-birining bo'ysunuvida bo'lmaganligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori 3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxatining 11-bandida, Dala geologiya (ekspeditsiyalari, uchastkalari va boshqa) tashkilotlari xodimlari tushishi sabab manfaatlar to'qnashuvi emas deya qaror qabul qilingan;

“Regional” MGTE 341/361 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori 3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxati asosida manfaatlar to'qnashuv mavjud emasligi bo'yicha qaror qabul qilingan;

“Markaziy geologiya-geofizika ekspeditsiyasi” 145/145 nafar Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra ekspeditsiyada 5 ta yaqin qarindoshlar bir tashkilotda ishlashi ular to'g'ridan-to'g'ri bir-birining bo'ysunuvida bo'lmaganligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori 3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxatining 11-bandida, Dala geologiya (ekspeditsiyalari, uchastkalari va boshqa) tashkilotlari xodimlari tushishi sabab manfaatlar to'qnashuvi emasligi bo'yicha qaror qabul qilingan;

“Analitik laboratoriya” 103/104 nafar. Axloq komissiyasi tomonidan tahlil natijasiga ko'ra bu dala ekspeditsiyalarida 1 ta yaqin qarindoshlar Ingichka uchastkasi boshlig'i K.Babayarovning onasi Ingichka uchastkasi texnolog M.Ishanovari bir tashkilotda ishlashi ular to'g'ridan-to'g'ri, bir-birining bo'ysunuvida ekanligi aniqlangan hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori 3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxatining 11-bandida, Dala geologiya (ekspeditsiyalari, uchastkalari va boshqa) tashkilotlari xodimlari ro'yxatiga laboratoriyalar tushmasligi va ular o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud deb topilgan. Bu holatni bartaraf etish maqsadida Ingichka uchastkasi texnolog M.Ishanova bo'ysunuvini uchastka ustasiga o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilingan.

3. Markaziy apparat 149/169 nafar. Aksiyadorlik jamiyati boshqaruv apparati axloq komissiyasining boshqaruv apparati xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi bo'yicha deklaratsiya arizalari bo'yicha tahlil natijalarini ko'rib chiqdi. Bunga ko'ra:

Texnik ishlab chiqarish bo'limi bosh mutaxassisi Ximmatov Forxod Najmiddinovichning Akasi Toshkent MGQE burg'ilash mashinisti, ukasi Toshkent MGQE burg'ilash mashinisti yordamchisi, hamda "Farxod Najmiddinovich Musallasi" FX rahbari, 100 % ta'sischisi ekanligi;

Qimmatbaho metallar geologiyasi boshqarma boshlig'i Juraev Yo'lchi Nurkulievichning ukasi Regional MGTE geologiya bo'lim boshlig'i Juraev Nodirjon Nurkuliyeich bilan;

Rangli va qora metallar geologiyasi boshqarmasi boshlig'i Saidov Xabib Lutfillayevichning 1.Otasi: Toshkent MGQE Olmaliq DE etakchi geologi Saidov Lutfillo, 2. Akasi: Toshkent MGQE Olmaliq DE geologiya ishlarida tog'-kon ishchisi Saidov Xayrullo Lutfillayevich, 3. Turmush o'rtog'i: Toshkent MGQE Olmaliq DE geologi Nurmatova Aziza Abdiqaxorovna,

Yuridik bo'lim boshlig'i Chuponov G'ayrat Yusufovichni "YUM AND LAWERS" advokatlik byurosi rahbari bilan,

Markaziy apparat Geofizika bo'limi bosh mutaxassisi Abdullayev G'ayrat Sobirovich Ukasi- Markaziy geologiya-geofizika ekspeditsiyasi karataj stansiyasi mashinisti Abdullaev Ulug'bek bilan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bor deya qo'yilgan tahlil natijalarini qonun doirasida muhokama qilinib.

Bunga ko'ra barcha komissiya a'zolarining fikr va mulohazalari tinglanib:
Komissiya,

QAROR QILADI:

1. Aksiyadorlik jamiyatining 4015 ta xodimidan 3973 tasi manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiya arizalari inobatga olinsin va 42 nafar xodimning manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiya arizalarini olish va ularni tahlil qilish joriy yilning 2-choragida yakuniga yetkazilsin

2. Aksiyadorlik jamiyatining Markaziy laboratoriya, Analitik laboratoriya va markaziy geologiya qidiruv (tasvirlash) ekspeditsiyalarning boshqaruv apparati xodimlari Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori 3-ilovasi bilan yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalaridan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlar xodimlari ro'yxatining 11-bandida, Dala geologiya (ekspeditsiyalari, uchastkalari va boshqa) tashkilotlari xodimlari ro'yxatiga tushmasligi inobatga olinsin.

3. Analitik laboratoriya Ingichka uchastkasi boshlig'i K.Babayarovning onasi Ingichka uchastkasi texnolog M.Ishanovani bir tashkilotda ishlashi ular to'g'ridan-to'g'ri, bir-birining bo'ysunuvida bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holati "Manfaatlar to'qnashuv to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi 1-qismi, 1-bandi doirasida bartaraf etish chorasi qo'llanilsin.

4. Jamiyat boshqaruv apparati tahlil natijalarida keltirilgan 5 ta tarkibiy bo'linmalardagi 188 ta jami 192 yaqin qarindoshlarning bir tashkilotda ishlashi sabab ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi deb hisoblansin.

5. Jamiyat boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linma rahbarlari (tarkibiy bo'linma boshlig'i, bosh muhandisi, bosh geologi), iqtisodiy masalalar, moddiy javobgar xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari hamda aloqador shaxslar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlariga yo'l qo'ymaslik vazifalari yuklansin.

6. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi nazoratini olib borsin.

7. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi va joylardagi mas'ullar tomonidan doimiy monitoringlar o'tkazilsin.

Komissiya raisi:

Moliyaviy ishlar bo'yicha direktor

R.Radjapov

Komissiya kotibi:

Inson resurslarini boshqarish va
rivojlantirish bo'limi boshlig'i

F.Umarov